

## TIJORAT BANKLARINING RENTABELLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Sheraliev Abbos Xolmo'minovich

Surxondaryo viloyat Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

Moliya va Bank ishi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10895575>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash borasidagi dolzarb muammolar yoritib berilgan. Shuningdek, maqola davomida bank faoliyatlari moliyaviy natijalarining shakllanishi va tahlining asosiy vazifalari haqida so'z boradi. Maqolada ilmiy faktlar va nazariyalarga tayanilgan bo'lib, maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sarf-xarajatlar, tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash, daromad, soliq va to'lovlar.

## CURRENT PROBLEMS IN ENSURING THE PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS

**Abstract.** This article highlights the current problems of ensuring the profitability of commercial banks. Also, the main tasks of the formation and analysis of the financial results of banking activities are discussed in the article. The article relies on scientific facts and theories, and conclusions and suggestions are given at the end of the article.

**Key words:** spending, profitability of commercial banks, income, taxes and fees.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИБЫЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Аннотация.** В данной статье освещены современные проблемы обеспечения прибыльности коммерческих банков. Также в статье рассмотрены основные задачи формирования и анализа финансовых результатов банковской деятельности. Статья опирается на научные факты и теории, а выводы и предложения приведены в конце статьи.

**Ключевые слова:** расходы, рентабельность коммерческих банков, доходы, налоги и сборы.

Tijorat banklari bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yurituvchi barcha subyektlar kabi, faoliyatidan olgan daromadlaridan qilgan sarf-xarajatlarini qoplab, ma'lum miqdorda foyda olishlari lozim. Foyda-tijorat banklari faoliyatlarining yakuniy natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichdir. Tijorat banklari foydasi yoki faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo'lsa, zarari ushbu hisobot davrida (oy, chorak, yil) barcha daromadlaridan xarajat hamda soliq va to'lovlarni chiqarib tashlangandan qolgan summani tashkil etadi.

Tijorat banklari daromadlari ikki guruhga: foizli va foizsiz daromadlarga ajratiladi. Bank daromadlari tijorat banklari mijozlariga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar uchun olingan foizlar, maboda kreditlarni vaqtida qaytarmagan tarzda mijozlardan yuqori stavkalar bo'yicha olinadigan foiz daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalaridan olingan daromadlar, turli xil investitsiyalar bo'yicha olingan daromadlar kabilar foizli daromadlarga kiradi. Banklar olgan xizmat haqi, savdo va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar – foizsiz daromadlar bo'ladi.

Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilganda – foydaning asosiy manbai bo'lgan daromadlarning tarkibi va o'zgarishini chuqur o'rganish lozim.

Tijorat banklari xarajatlari ham foizli xarajatlar va operatsion xarajatlarga guruhlanadi. Tijorat banklari depozitlarga, olingan kreditlarga, qimmatbaho qog'ozlarga to'lanadigan foiz va shu kabilarga –foizli xarajatlar deyiladi. Tijorat banklariga ko'rsatilgan xizmatlarga (transport, suv, gaz, elektroenergiya va shu kabilarga), xodimlarga ish haqi, ma'muriy-boshqaruv xarajatlarga operatsion xarajatlar deyiladi. Banklar moliyaviy natijalar tahlilida bu xarajatlarning zarurligi, o'tgan davrlar bilan o'zgarganligi, tejamkorlikga rioya qilinganligi o'rganiladi. Xullas, tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili, ularning daromad va xarajatlari tahlili bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi lozim ekan.

Tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni asosan, banklar buxgalterlik balansi, «Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot»lardan, hamda audit tekshiruv, yig'ilishlar bayonnomalaridan, zarurat tug'ilganda buxgalteriya hisobining analitik yozuvlaridan olish mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlili asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- faoliyat moliyaviy natijalarini (foyda yoki zarar) aniqlash;
- foydaning belgilangan rejaga mosligi va o'tgan davrlardan farqini o'r-ganish;
- foydaning tarkibi: daromadlar, xarajatlar miqdori va tarkibidagi o'zga-rishlarni o'rganish hamda ularning sabablarini aniqlash;
- faoliyat davomida tejamkorlikga rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- xarajatlarni va daromadlarni optimallashtirish orqali foydasni ko'pay-tirish ichki imkoniyatlarini aniqlash va shu kabilar. Ushbu vazifalar tahlili kelgusida to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Ta'kidlash zarurki, bankning faoliyat yuritishidan asosiy maqsadi, bu maksimal darajada foyda olishdir. Foyda, albatta bank daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq hisobiga shakllanadi hamda uning modelini yaratish hisob va hisobot tizimlari bilan bog'liqdir. Foyda xajmini bankning ko'proq daromad olishi mumkin bo'lgan riski yuqoriroq operatsiyalar hisobiga ham ko'paytirish mumkin

Bankning foydalilik darajasini baholash tavakkalchiliklarni himoya qilish darajasi taxlili bilan uzviy bog'liq

Bank foydasini boshqarish elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin, bular:

- bank daromadlarini boshqarish;
- bank foydasining shakllanishini nazorat qilish;
- bankning daromadlilik va foydalilik darajasini miqdor va sifat pozitsiyalaridan kelib chiqqan holda baholash;
- bank tarkibiy bo'linmalari rentabelligini baholash;
- «foyda markazlari» yoki bankning asosiy yo'nalishlari rentabelligini baholash;
- bank yaratayotgan maxsulot va xizmatlar rentabelligini baholash;

Bank foydasini boshqarishning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib, foydaning shakllanishini nazorat qilishdir.

Bank balansi foydasi xajmining to'g'ri va ishonchliligi quyidagi vazifalar asosida o'z echimini topadi:

- bank daromadlari hisobining analitik hisob-raqamlarda qonuniy tarzda olib borishini tekshirish;
- bank xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalarning tuzilishi hamda to'g'riligi va haqqoniyligi taxlili;
- daromad va xarajat hisob-raqamlarining yopilishi hamda qoldiqlar yillik hisobotda foyda yoki zararlar hisob raqamlariga olib borilishi bilan bog'liq operatsiyalarning nazorati;
- boshqa noan'anaviy operatsiyalarning miqdori taxlili;
- turli xildagi jarima va peniyalar bilan bog'liq tushumlar va to'lovlar aks etadigan hisob-raqamlarning yopilishini tekshirish;

Bank daromadlari va xarajatlarining haqqoniyligi balans schyotlari turkumiga kiruvchi shaxsiy schyotlar yordamida tekshiriladi. Bunda taxlil qilinayotgan davrni umumiy yoki tanlanma (ma'lum bir oy bo'yicha) xolda tekshiladi va tekshirishda xujjatlarni rasmiylashtirilishi, operatsiyalar mazmuni, xisob-raqamlar bo'yicha berilgan provodkalar to'g'riligi ko'rib chiqiladi.

Bankning daromadlari va xarajatlarini baholash uchun ularni muntazam strukturaviy taxlil qilib borish muxim ahamiyat kasb etadi. Bankning daromadlilik darajasi va faoliyati bo'yicha foydaliligi moliyaviy koeffitsientlar hamda strukturaviy taxlil natijalari asosida baxolanadi.

Bank faoliyatini strukturaviy taxlil qilishning vazifasi, ularning asosiy turlarini aniqlash, daromadlar manbaini stabiligi va saqlanib borish barqarorligini baholashdan iboratdir.

Taxlil, bankning o'tgan davrlar mobaynida erishgan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga asosan olib boriladi. Jahon amaliyotiga ko'ra tahlil qilish davri minimum 3 yilni o'z ichiga oladi.

Daromadlar stabiligini baholashda, ular ikki guruhga bo'linadi:

- birinchi gurux, stabil daromadlar;
- ikkinchi gurux, nostabil daromadlar.

Birinchi guruhga bankning operatsion daromadlari, ya'ni foizli va foizsiz daromadlar kiradi. Foizsiz daromadlarga bankning komission xizmat to'lovlari kiradi va ushbu daromadlar o'zining tabiatiga ko'ra bankda stabil daromadlar hisoblanadi.

Ikkinchi guruhga bankning qimmatli-qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari, spekuliyativ xarakterga ega bo'lgan daromadlar, shuningdek, aktivlarni qayta baholashdan ko'riladigan va bankning noan'anaviy operatsiyalaridan oladigan daromadlari kiradi.

Bank xarajatlarini strukturaviy taxlil qilishning vazifasi, xarajatlarning asosiy turlarini o'rganib chiqish, udarning o'sish sur'atini belgilash xamda ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Strukturaviy tahlilning umumiy xulosasiga asosan bank daromadlari va xarajatlarining asosiy turlari bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib boriladi. Masalan, foizli daromadlarni tahlil qilishda ularning manbalari tuzilishi o'rganiladi (ichki kreditlar, banklararo kreditlar, qimmatli-qog'ozlar, lizing va boshqa operatsiyalar). Tahlil qilishda berilgan ssudalar va ularning foiz stavkalari darajalari hajmiga qay darajada ta'sir ko'rsatish, operatsiyalarning aloxida turlari foizli daromadlarda tutgan o'rni, foiz marjasining dinamikasi o'rganiladi. Foiz marjasining pasayishi bankni bankrotlikka olib boradi. Bu rentabellikka erishishdagi asosiy muammolardan biridir.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent, 1995 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida" gi Qonuni. 2003 y 11 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent, 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent. 14.06.2005 yil..
5. Bekmurodov A.Sh.va b. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida, 5 qism. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi, TDIU, 2005 y.